

O'ZBEK TILIDA TABU VA EVFEMIZMLARNING ZAMONAVIY KO'RINISHLARI

O'roqova Gullola Shokir qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

Xalilov Kobuljon Yusupovich

Samarqand davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilida tabu va evfemizmlarning zamonaviy nutq jarayonidagi o'rnini, ularning lingvistik hamda madaniy xususiyatlari keng qamrovda tahlil qilinadi. Jamiyatda aytish noo'rin, noqulay yoki taqiqlangan hisoblangan tabu so'zlar hamda ularning o'rnini bosuvchi evfemistik birliklarning shakllanish sabablari yoritiladi. Tadqiqot jarayonida kasallik, o'lim, nogironlik, ijtimoiy-iqtisodiy holat va shaxsiy hayotga oid tabu birliklarning zamonaviy evfemizmlar orqali ifodalanishi misollar asosida ko'rsatib beriladi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar nutqida yuzaga kelayotgan yangi evfemistik birliklarning nutq madaniyatiga ta'siri ham tahlil qilinadi. Maqolada tabu va evfemizmlarning o'zbek tilidagi nutqiy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilib, ushbu hodisaning lingvokulturologik jihatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: tabu so'zlar, evfemizm, nutq madaniyati, zamonaviy o'zbek tili, lingvokulturologiya.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируется роль табу и эвфемизмов в современном речевом процессе узбекского языка, а также их лингвистические и культурные характеристики. Выделяются причины формирования табуированных слов, которые считаются неуместными, неудобными или запрещёнными для употребления в обществе, а также эвфемистические единицы, заменяющие их. В ходе исследования приводятся примеры выражения табуированных единиц, связанных с болезнью, смертью, инвалидностью, социально-экономическим статусом и личной жизнью, посредством современных эвфемизмов. Кроме того, анализируется влияние новых эвфемистических единиц, возникающих в речи средств массовой информации и социальных сетей, на речевую культуру. В статье раскрывается значение табу и эвфемизмов в формировании речевой культуры узбекского языка и обосновываются лингвокультурные аспекты данного явления.

Ключевые слова: табуированные слова, эвфемизм, речевая культура, современный узбекский язык, лингвокультурология.

Abstract: *This article comprehensively analyzes the role of taboos and euphemisms in the modern speech process of the Uzbek language, as well as their linguistic and cultural characteristics. The reasons for the formation of taboo words that are considered inappropriate, uncomfortable, or forbidden in society, along with the euphemistic units that replace them, are highlighted. In the course of the research, examples are provided to demonstrate how taboo units related to illness, death, disability, socio-economic status, and personal life are expressed through modern euphemisms. In addition, the impact of new euphemistic units emerging in the language of mass media and social networks on speech culture is analyzed. The article reveals the significance of taboos and euphemisms in shaping speech culture in the Uzbek language and substantiates the linguocultural aspects of this phenomenon.*

Keywords: *taboo words, euphemism, speech culture, modern Uzbek language, linguocultural studies.*

KIRISH

Evfemizmning paydo bo'lishi insoniyat tafakkuri va axloqiy qadriyatlar rivoji bilan bevosita bog'liq. U nafaqat til hodisasi (ifoda etayotgan shaxs nuqtai nazaridan noqulay bo'lgan birliklar o'rnida qo'llangan so'z, so'z birikmasi yoki gap), balki insonning nutqiy vaziyatni ma'lum ma'noda o'zgartirishga moyilligi sifatida ham namoyon bo'ladi. Maqbul so'z qo'llanilishi natijasida so'zlovchi tomonidan man etilgan (tabu) birliklardan foydalanish oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noxush muhit yumshatiladi. Man etilgan so'zlar insoniyat bilan tengqur, deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi [1, 3-b.].

Evfemizm atamasi yunon (grek) tilidan olingan bo'lib, ko'pchilik mualliflar fikriga ko'ra, noo'rin birlikning o'rinli birlik bilan almashinuvi sifatida talqin qilinadi. A. A. Reformatskiy evfemizmlarni "taqiqlangan (tabulangan) so'zlar o'rniga qo'llanishiga ruxsat berilgan so'zlar" deb ta'riflaydi. "Lingvistik ensiklopedik lug'at"da esa evfemizm "so'zlovchi nazarida qo'pol yoki noqulay bo'lgan so'z va ifodalar o'rnida qo'llanilgan, ularga ma'nodosh, emotsional jihatdan betaraf so'z va ifodalar" sifatida izohlanadi.

A. Hojiyevning 2002-yilda qayta nashr qilingan "Lingvistik terminlar izohli lug'ati"da evfemizmga quyidagicha ta'rif beriladi: "Evfemizm (grek. euphemismos; eu — yaxshi, phemi — gapiraman) narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol bo'lmagan, botmaydigan so'z yoki iborani qo'llash. Masalan, ikkiqat so'zi o'rnida homilador, og'ir oyoqli so'zlarini qo'llash" [1, 5-b.]. Biroq lug'atda disfemizmga doir alohida izoh berilmagan.

Darhaqiqat, buyuk allomalar ta'kidlaganlaridek, yaxshi so'z o'lik tanaga jon ato etsa, yomon so'z sog' tanani ham halok qilishi mumkin. Ana shu yaxshi so'zlar

qatoriga evfemizmlarni kiritish lozim. Garchi ularda yashirin tarzda berilayotgan tushunchaning salbiy ma'nosi sezilib tursa-da, til egasi uni imkon qadar sezdirmaslikka harakat qiladi. Ushbu holatning o'zi nutq egalarining hayoli va andishasidan dalolat beradi. Masalan, gadoy yoki yalangoyoq so'zlari o'rnida qo'li yupqa, qo'li yupun kabi frazeologik birliklarni qo'llash afzal sanaladi.

Evfemizmlar nafaqat dag'al ma'noli so'zlar, balki tabu birliklar o'rnida qo'llanuvchi so'z va iboralar hisoblanadi. Ma'lumki, tabular taqiqlash ma'nosini ifodalaydi va bugungi kunda ularning ijtimoiy hamda lisoniy turlari farqlanadi. Jamiyatda taqiqlangan xatti-harakatlar (masalan, qalampirni qo'lga berish, supurgini tik qo'yish) ijtimoiy tabuga, aytilishi man etilgan so'zlar esa lisoniy tabuga mansubdir.

Tabular qo'llanish doirasiga ko'ra farqlanib, ular lahja, geografik hudud hamda ijtimoiy guruhlar kesimida ham namoyon bo'lishi mumkin. Hatto oddiy bir xonadonning o'ziga xos tabu birliklari mavjudligi kuzatiladi. Masalan, muayyan oilada kimdir onkologik kasallik sababli vafot etgan bo'lsa, ma'lum bir muddat ushbu kasallik nomi tabu sifatida qo'llanilmasligi mumkin.

Yoki o'zbek xonadonlarida kundalik nutqda qo'llaniladigan so'zlarga e'tibor qarataylik: nega otalar onalarga "onasi", onalar esa otalarga "dadas" deya murojaat qiladi? Nega er-xotin bir-birini ismi bilan chaqirmaydi? Chunki ayrim oilalarda ismini aytib murojaat qilish tabu hisoblanadi. Bu holat o'zbek xonadonlariga xos yuksak andishaning natijasidir. Er-xotinning jamiyat oldida, hatto o'zaro munosabatda ham ismini aytishdan tiyilishi shu andishaning ifodasidir. Taxminan bir asr avval o'zbek oilalarida er va xotin bir-biriga katta farzandining nomi bilan murojaat qilgan. Bugungi kunda bunday evfemistik qo'llanishlar tobora kamayib bormoqda.

Evfemizmlarning chegarasini faqat tabular bilan bog'lab qo'yish to'g'ri emas. Bu borada M. Mirtojiyev quyidagi fikrlarni bildiradi: "Haqiqatan ham ayrim so'zlarning madaniy muloqotga sig'ishmagani uchun qo'llanilmasligi tabu emas. Ammo madaniy muloqotga sig'ishmaydigan, qo'pol, dag'al va andishasiz so'zlardan muomala jarayonida tiyilish zarur bo'lsa, ularning o'rnida yumshoqroq, yoqimliroq va madaniyroq so'z yoki ibora tanlanadi. Ana shu tanlov evfemizmning ko'rinishlaridan biri hisoblanadi" [3, 87–88-b.].

Tabu va evfemizmning o'zaro bog'liqligi muhim ahamiyatga ega. Tabu ayrim mavzularni bevosita ifodalashni cheklovchi hodisa bo'lsa, evfemizm ana shu cheklovlarni aylanib o'tish va nutqni yumshatish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bois ular bir-birini to'ldiruvchi til hodisalari sifatida qoraladi. Adabiyotda esa mazkur ikki vosita orqali murakkab va nozik mavzularni ifodalash imkoniyati yanada kengayadi.

O'zbek adabiyotida evfemizmlarning turlari ham xilma-xildir. Jumladan, so'z o'rnini bosuvchi evfemizmlar — noqulay yoki qo'pol birliklar o'rnida yumshoqroq

sinonimlarning qo'llanishi keng uchraydi. Shuningdek, atamalarni bilvosita ifodalash, metafora va boshqa badiiy vositalar yordamida ham evfemistik ma'no yuzaga keltiriladi. Ushbu usullar orqali mualliflar mavzuning og'irlik darajasini kamaytirib, o'quvchining uni qabul qilishini yengillashtiradilar.

Tabu va evfemizmning o'zbek adabiyotidagi o'rni va ahamiyati nafaqat tilning madaniy qirralarini aks ettirishda, balki jamiyat hayotining o'ziga xos jihatlarini, insonlarning hissiy va ijtimoiy holatlarini anglashda ham muhim rol o'ynaydi. Bu vositalar yordamida mualliflar o'z asarlarida jamiyatning nozik jihatlarini, insonlarning ichki dunyosini, ularning orzu-umidlari va qo'rquvlarini yanada aniq va ta'sirchan tarzda ifodalashga erishadilar.

Shu bilan birga, zamonaviy o'zbek adabiyotida tabu va evfemizmning yangi shakllari yuzaga kelmoqda. Globalizatsiya, madaniy almashinuv hamda texnologik taraqqiyot ta'sirida tilning mazkur qatlamlari ham o'zgarib, yangilanib bormoqda. Yangi mavzular va yangi ijtimoiy muammolar paydo bo'lishi bilan ularga mos evfemistik ifodalar yaratilmoqda. Bu jarayon o'zbek adabiyotining jonli va uzluksiz rivojlanib borayotganligini ko'rsatadi [2, 210-b.].

Xulosa qilib aytganda, tabu va evfemizmlar o'zbek tilida nutq madaniyatini shakllantiruvchi muhim lingvistik hodisalar hisoblanadi. Tabu aytish noo'rin yoki taqiqlangan tushunchalarni cheklasa, evfemizmlar ushbu cheklovlarni yumshoq va madaniy shaklda ifodalash imkonini beradi. Zamonaviy nutq, ommaviy axborot vositalari va adabiyotda evfemizmlarning faol qo'llanishi jamiyatdagi nozik mavzularni andisha va estetik mezonlar asosida yetkazishga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan, tabu va evfemizmlarning o'zaro bog'liqligi o'zbek tilining lingvokulturologik xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Qodirova X. O'zbek tilida evfemizm va disfemizm. — Toshkent: Bookmany Print, 2022. — 3–5-betlar.
- 2.Karimova S. Tabu va evfemizm: til madaniyatidagi o'ziga xosliklar. — Namangan: "Madaniyat" nashriyoti, 2020. — 210 bet.
- 3.Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. — Toshkent, 2010. — 87–88-betlar.